
Nufuzli musobaqa va tanlovlar g'oliblari ortib bormoqda

Farg'ona shahridagi 9-o'rta ta'lim maktabida turli tanlovlar musobaqalarda g'olib bo'layotgan iqtidorli va iste'dodli yoshlarimiz soni yil sayin ortib bormoqda.

Maktabimizning 2-sinf o'quvchisi Lymonaxon Qosimova sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha Navoiy shahrida o'tkazilgan respublika musobaqasida g'olib bo'ldi.

Shuningdek, Toshkent shahrida o'tkazilgan Xalqaro iqtisod olimpiadasi saralashining yakuniy bosqichida yana bir o'quvchimiz Abbasbek Akbaraliyev ham faol ishtrok etdi. Abbasbek o'zining intuluvchanligi, bilimi va tarbiyasi bilan maktabimizda o'z o'rniga ega.

Lymonaxon va Abbasbeklarning ustozlari va ota-onasiga bergan ta'lim va tarbiyalari uchun maktabimiz ma'muriyati nomidan o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz!

Gulbahor MA'RUFJONOVA, shu maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosari.

2022-05-24 17:40:53